

Talabalar bilan ochiq muloqot



Namangan qurilish-muhandislik institutida transport yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bilan ochiq muloqot tashkil etildi.

Tadbirda viloyat avtomobil yo'llari boshqarmasi, temir yo'l, havo hamda avtomobil transporti bo'yicha vakillari hamda viloyat YHXB targ'ibot guruhi xodimlari ishtirok etishdi.



Ochiq muloqotda talabalarga tizimdagi islohotlar, jumladan, o'tgan yillarda amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar, galdagi vazifa va rejalar xususida ma'lumotlar berib o'tildi.



Tadbir so'ngida talabalar o'zlarini qiziktirgan savollarga soha mutaxassislar tomonidan javoblar olishdi va albatta kelajakda yetuk mutaxassis bo'lishga ahd qilishgani, bu yo'lda o'z bilim va izlanishlariga tayanishlarini bildirib o'tishdilar.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi

Matbuot xizmati